

**“QONUNCHILIK GILYOTINASI” — ORTIQCHA YUKLARDAN
XALOSLIK SARI MUHIM QADAM, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTINING 231-SONLI FARMONI TAHLILI.**

*Parkent tuman Davlat xizmatlari
markazi yetakchi mutaxasisi
J.X.Bo'riyev*

Annotatsiya: 2025-yil 25-noyabrda qabul qilingan PF-231-son Farmoni — “Qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish va tartibga solish yukini kamaytirish to‘g‘risida” — O‘zbekiston qonunchilik tizimida qator eskirgan, dolzarbligini yo‘qotgan va fuqarolar hamda biznes faoliyatini murakkablashtiruvchi hujjatlarni bekor qilishni nazarda tutadi. Farmon doirasida taxminan 800 ta normativ-huquqiy hujjat “tartibga solish gilyotinasini” orqali bekor qilinadi, shuningdek tadbirkorlik va oddiy fuqarolar uchun ma‘muriy yuklar soddalashtiriladi. Bu esa davlat boshqaruvi, biznes va ijtimoiy hayotni soddalashtirish, tartibga solish yukini kamaytirish, hamda investitsiya hamda biznes muhitini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim islohot bo‘lib qoladi.

Tayanch so‘zlar: Qonunchilik gilyotinasini, byurokratik yuk, yo‘l xaritasi, E-aktiv, tartibga solish gilyotinasini.

Qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar — jamiyat, davlat va iqtisodiy faoliyat uchun poydevor sanaladi. Biroq vaqt o‘tishi bilan ayrim qonunlar eskirib, ular zamon talablariga javob bermay qoladi. Ba’zi normalar esa takrorlanishi, bir-biriga zid bo‘lishi yoki amalda ishlamasligi mumkin. Natijada, bu holatlar fuqarolar va tadbirkorlar uchun ma‘muriy va huquqiy yuk, murakkablik va ortiqcha tartiblarni yuzaga keltiradi. Aynan shularni inobatga olib, 25-noyabr 2025-yilda PF-231 Farmoni qabul qilindi. Bu Farmon mamlakat qonunchilik bazasini modernizatsiya qilish, ortiqcha va eskirgan hujjatlarni bekor qilish, tartibga solish yukini kamaytirish orqali oddiy fuqarolar va biznes subyektlari uchun qulay muhit yaratishni maqsad qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 231-sonli farmonining asosiy bandlarida quyidagilari o‘z aksini topadi, ya’ni:

- ✓ Farmon bilan amalda o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotgan — taxminan **800 ta normativ-huquqiy hujjat** bekor qilinadi;
- ✓ Bekor qilinadigan hujjatlar “tartibga solish gilyotinasini” mexanizmi orqali tanlab olinadi; ya’ni, bu mexanizm orqali samarasi past, eskirgan yoki amalda ishlamaydigan normalar tizimdan chiqariladi;

- ✓ Farmon bilan shuningdek biznes va hayotga oid tartibga solish yukini kamaytirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Bu yo'l xaritasida quyidagi soddalashtirishlar nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 231-sonli farmoni doirasida bir qator majburiy talablar va ma'muriy yuklar soddalashtirildi yoki bekor qilindi. Masalan:

- Tadbirkorlar uchun moliyaviy operatsiyalarni majburiy ravishda "E-aktiv" elektron tizimida qayd etish talabi bekor qilinadi.
- Ko'chmas mulk bo'yicha garov huquqini ro'yxatga olishda davlat xizmatlari narxi ikki baravarga kamaytiriladi.
- Shaxsiy ehtiyoj uchun olib kiriladigan tovarlarning boj va boj-bepul import normalari qayta ko'rib chiqiladi.
- Ijtimoiy himoyaga ehtiyojmand — ayniqsa nogironligi bor shaxslar uchun yer uchastkasini ro'yxatga olish muammosi tufayli soliq imtiyozlaridan foydalanish uchun muqobil hujjatlar bilan imkoniyat yaratiladi.

Shunday qilib, nafaqat eskirgan hujjatlar bekor qilinadi, balki byurokratik jarayonlar soddalashtiriladi, xizmatlar xarajatlari kamayadi, tadbirkorlik va fuqarolik faoliyati uchun qulayliklar yaratiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 231-sonli farmoni to'liq va samarali ijrosi bir qancha muhim ijobiy salohiyatga ega:

- ✓ **Byurokratik yuk kamayadi, tadbirkorlik osonlashadi.** Moliyaviy hisob-kitoblarni elektron tizimga kiritish majburiyati bekor qilinishi, xizmatlar narxining pasaytirilishi kichik va o'rta biznes uchun yangi umidlar ochadi. Bu esa iqtisodiy faollik va investitsiyalarni rag'batlantiradi.
- ✓ **Investitsiya va biznes muhiti yaxshilanishi.** Qonunchilikdagi eskirgan va ortiqcha normalardan voz kechish — qonunlar soddaligi, shaffofligi va bashorat qilinuvchanligini oshiradi. Bu esa mahalliy va chet ellik investorlar uchun muhitni jozibador qiladi.
- ✓ **Fuqarolar uchun qulaylik va jamiyat ishi soddalashadi.** Davlat xizmatlari, bojxona, mulk va garov ro'yxatga olish kabi jarayonlar oddiyroq va arzonroq bo'lib, fuqarolar vaqt va pulni tejaydi.
- ✓ **Qonunchilikning ixchamligi va dolzarbligi oshadi.** Eskirgan yoki ziddiyatli normalarni yo'qotish orqali huquqiy tartib va adolatli boshqaruvga erishish uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Bu jihatlari bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 231-sonli farmoni mamlakatda biznes, fuqarolik va davlat boshqaruvida modernizatsiya jarayonlarida muhim rol o'ynashi mumkin. Biroq, har qanday yirik islohotlarda bo'lgani kabi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 231-sonli farmonidan kutilgan natijaga erishish uchun quyidagi ehtiyot choralari va muammolarni e'tiborga olish lozim:

- Bekor qilinayotgan 800 ta hujjat ro'yxati puxta tahlil qilinmagan bo'lsa, zarur yoki foydali normalar ham yo'q bo'lib ketishi mumkin. Bu esa huquqiy

bo'shliqlar, qonuniy tartibsizliklar va qonun ustuvorligining poydevorini zaiflashtirishi mumkin.

- “Yo‘l xaritasi”da ko‘zda tutilgan soddalashtirishlar amalda idoralar tomonidan to‘liq va vaqtida bajarilmasa — byurokratik yuk kamaymasligi mumkin. Qonun amaliyoti va idoraviy tartib o‘rtasidagi tafovut — islohot samarasizligiga olib kelishi ehtimoli bor.
- Aholi va biznes vakillariga yangi qonunchilik hamda soddalashtirilgan tartiblar haqida yetarli tushuntirish va ma’lumot berilmasa — notanishlik, chalkashlik va noroziliklar paydo bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 231-sonli farmonining to‘liq natijasiga erishish uchun davlat organlari, qonunchilik mualliflari, jamoatchilik va biznes hamkorlari hamkorligi, shaffoflik va keng muhokama muhim sanaladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 231-sonli farmoni — O‘zbekiston qonunchilik tizimini modernizatsiya qilish, ortiqcha, eskirgan va amalda samarasiz bo‘lgan normativ-huquqiy aktlardan voz kechish va tartibga solish yukini kamaytirish yo‘lida muhim hamda kerakli hujjatdir. Agar u to‘liq va shaffof ijro etilsa, davlat boshqaruvi, tadbirkorlik, investitsiya muhiti, hamda oddiy fuqarolar hayoti sezilarli darajada yengillashadi. Ayniqsa kichik va o‘rta biznes subyektlari, oddiy fuqaro va jamiyat uchun bu Farmon — byurokratik to‘siqlardan xalos bo‘lish, xizmatlarga qulay va arzon murojaat etish imkoniyati demakdir. Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 231-sonli farmoniga bog‘liq ijobiy o‘zgarishlar faqat hujjatlarni bekor qilish bilan cheklanmaydi — uning amaliy ijrosi, idoraviy mas’uliyat, jamoatchilik nazorati va keng tushuntirish ishlari talab etiladi. Agar ushbu shartlar bajarilsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 231-sonli farmonining qabul qilinishi O‘zbekistonning qonuniy davlat, shaffof boshqaruv va qulay iqtisodiy muhit sari muhim qadami bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi **Prezidentning 25.11.2025 yildagi "Qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish va tartibga solish yukini kamaytirish to'g'risida"gi 231-sonli farmoni;**
2. Rasmiy ma’lumotlar va “yo‘l xaritasi” ilovalari mazmuni;
3. “Mirziyoyev signs decree lifting legal loopholes” — Tashkent Times, 26/11/2025.